

“FRAZEOLOGIZM” ATAMASI HAQIDA

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7663282>



ELSEVIER

Kabulova Umida Sayidmaxamadovna

Dotsent

Andijon davlat chet tillari instituti.

Kabilova Zebiniso Muratovna

Dotsent

Andijon davlat chet tillari instituti.



**Abstract:** Ushbu maqola "IL402104213. O'zbek tilida elektron lingvistik entsiklopedik lug'at ishlab chiqish" innovatsion davlat ilmiy - texnika dasturi asosida tayyorlangan. Uning amaliy ahamiyati shundaki, maqolada o'zbek tiliga oid lingvistik material jamlangan va tahlil qilingan. Ilmiy maqola natijalaridan Oliy o'quv yurtlarining filologiya fakultetlarida maxsus kurs o'qitishda, qo'llanmalar yaratishda foydalanish mumkin.

**Keywords:** turg'un birikma, jumla, ifoda, lingvistik termin, frazeologik butunlik, frazeologik chatishma, frazeologik qo'shilma, frazeologik birlik, lug'aviy birlik, struktur tahlili, semantik shakllar, frazeologik qiyoslanish, ekvivalentlik nazariyasi, obrazli ifodalar, frazeografik konsepsiya.

**About:** FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.

Received: 21-02-2023

Accepted: 22-02-2023

Published: 22-02-2023



**Abstract:** Эта статья готовится "IL402104213. Разработка электронного лингвистического энциклопедического словаря на узбекском языке". Его практическая значимость заключается в том, что в статье обобщен и проанализирован лингвистический материал по узбекскому языку. Результаты научной статьи могут быть использованы при преподавании спецкурса на филологических факультетах высших учебных заведений, при создании пособий.

**Keywords:**

**About:** FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.

Received: 21-02-2023

Accepted: 22-02-2023

Published: 22-02-2023



**Abstract:** This article is being prepared by "IL402104213. Development of an electronic linguistic encyclopedic dictionary in the Uzbek language". Its practical significance lies in the fact that the article summarizes and analyzes linguistic material on the Uzbek language. The results of the scientific article can be used when teaching a special course at the philological faculties of higher educational institutions, when creating manuals.

**Keywords:**

**About:** FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.

Received: 21-02-2023

Accepted: 22-02-2023

Published: 22-02-2023

Terminologik lug'atlarda frazeologizm turlicha izohlanadi. Jumladan, O'zbek tilining izohli lug'atida frazeologizm atamasiga shunday ta'rif beriladi:

Frazeologizm (*yunoncha phrasis* – ifoda, jumla+logos – so'z) *tilsh.* Tuzilishi jihatidan so'z birikmasiga, gapga teng, semantik jihatdan bir butun, umumlashgan ma'no anglatadigan, nutq protsessida yaratilmay, balki nutqqa tayyor holda kiritiladigan lug'aviy birlik. Turg'un birikmalarning obrazli, ko'chma ma'noga ega turi. Masalan, *tomdan tarasha tushganday, oyog'ini qo'lga olmoq, burnini ko'tarmoq, sichqonning ini ming tanga* va b. Frazeologik birliklarning odatda uch turi ko'rsatiladi: 1) frazeologik qo'shilma, 2) frazeologik butunlik, 3) frazeologik chatishma.

*Asarda chuqur ma'noli, ixcham, hikmatona jummlar – frazeologizmlar ko'p uchraydi. "O'TA".*

A.Hojiyev "Lingvistik terminlarning izohli lug'ati" da frazeologizmlarni quyidagicha izohlaydi: frazeologik birliklarga "tuzilishi jihatdan so'z birikmasiga, gapga teng, semantik jihatdan bir butun, umumlashgan ma'no anglatadigan, nutq protsessida yaratilmay, balki nutqqa tayyor holda kiritiladigan lug'aviy birlik, turg'un birikmalarning obrazli, ko'chma ma'noga ega turi", - deydi.

Professor Sh.Rahmatullayev - ikki yoki undan ortiq leksik negizdan tarkib topgan, tuzilishi jihatidan birikmaga, gapga teng, mazmunan so'zga muqobil, yaxlitligicha ustama ko'chma ma'no anglatadigan lug'aviy birliklarni frazeologik obyekt deb e'tirof etadi.

B.Yo'ldoshev, A.Mamatov kabi tilshunoslar frazeologizmlarni keng tushunib, birikmali, turg'un, obrazli ifodalarni frazeologizmlar sifatida tadqiq etadilar.

Frazeologizmlarni o'rganishda xorij lingvistlari I.R.Galperin, Yu.M.Lotman, V.A.Lukin, N.V.Petrov, V.G.Admoni, V.Z.Demyankov, Yu.N.Karaulov, Yu.N.Zemskaya, N.P.Peshkov, I.G.Kosheva, T.V.Milevskaya, N.V.Shevchenko, Ye.I.Dibrova, I.M.Kobozeva, Ye.S.Kubryakova, R.Barta, M.M.Baxtin, Yu.Kristeva, Ye.A.Kozitskaya, Yu.P.Solodub, N.A.Fateyeva, V.Ye.Chernyavskaya, J.Bagana, Sh.Balli, V.V.Vinogradov, V.G.Gak, V.fon Gumboldt, V.P.Jukova, A.V.Kunina, V.M.Mokiyenko, Yu.P.Soloduba, Yu.S.Stepanova, I.A.Sternina, V.N.Teliya, A.A.Ufimseva, T.N.Fedulenkova, chex-lingvokulturologiyasi yo'nalishida: Yu.M.Lotman, V.N.Toporova, V.V.Ivanova, B.A.Uspenskiy, Yu.S.Stepanov, V.I.Postovalova; leksik-semantik yo'nalishida Yu.D.Apresyanlar ishlari tahsinga sazovordir.

Frazeologiyaga oid fundamental tadqiqotlar orasidan Fridrix Zeylarning "Nemis frazeologiyasi" nomli ilmiy tadqiqotini nemis lingvistik adabiyoti sohasidagi mukammal ishlardan biri deb hisoblash mumkin. Unda maqollarning struktur tahlili va semantik shakllari o'z ifodasini topadi<sup>107</sup>.

Alohida ta'kidlash lozimki, rus tili frazeologiyasi keng qamrovda o'rganildi, qator monografik ishlar taqdim etildi: V.L.Arhangelskiy "Устойчивые фразы в современном русском языке", V.N.Teliya "Что такое фразеология", M.T.Tagiyev "Глагольные фразеологизмы современного русского языка", V.P.Jukov "Фразеологизм и слово", N.M. Shanskiy "Фразеологизмы современного русского языка", Samarqand frazeologik maktabining tashkilotchisi L.I. Royzenzon "Лекции по общей и русской фразеологии", A.M.Molotkov "Основы фразеологии русского языка".

<sup>107</sup> Леднёва А.В. Паремнологическая картина мира в русском и немецком языках (Тематический блок «Человек»). Диссер.на соискание учёной степени канд.фил.наук. –Уфа. 2015. – С.14

Frazeologiya tilshunoslikning boshqa bo'limlariga nisbatan yangi bo'limdir. U leksikologiya bag'ridan XX asrning 50-yillaridan mustaqil bo'lim sifatida ajralib chiqdi. Sobiq sho'rolar davrida imperiya hududidagi barcha tillarning frazeologiyasi V.V.Vinogradov ta'limoti asosida dunyoga keldi. Jumladan, o'zbek frazeologiyasi ham bundan mustasno emas.

Xususan, Sh.Rahmatullayev, M.Sodiqovalar tomonidan frazeologizmlarning qator lug'atlariga tartib berilgan. Bu borada tadqiqotchi olim Z.Sodiqovning izlanishlari ham alohida e'tiborga loyiq bo'lib, tadqiqotchi o'zbek adabiy tilining tarixiy manbalaridan biri bo'lgan "Qutadg'u bilig" asari tili tarjimalari yuzasidan tadqiqotlar olib borgan, bunda frazeologizmlar masalasiga maxsus to'xtalib o'tgan. "Qutadg'u bilig" asari tarjimasi bilan aynan olmon olimlari ko'p izlanishlar olib borishgan. Bu esa tarjima jarayoni olib borilayotgan har ikki tilning frazeologik qiyoslanishi bilan bog'liq juda katta qiyosiy tahlillarni bevosita yuzaga chiqaradi.

O'zbek tilshunosligida frazeologizmlarni qiyosiy jihatdan leksik, semantik, grammatik sathlarda tadqiq etish, ularning kognitiv, pragmatik va stilistik xususiyatlarini o'rganish borasida chuqur ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan, bu borada Sh.Rahmatullayev, A.E.Mamatov, B.Yo'ldoshev, P.U.Bakirov, M.K.Xoliqova, B.X.Reimov, A.R.Ismailov, G.S.Hakimova, K.D.To'xtayeva, B.M.Jo'rayeva va boshqalarning tadqiqotlarini qayd etish mumkin. Bu borada D.Apresyan va I.M.Kobozevalarning ham ishlari tahsinga sazovordir<sup>108</sup>.

Taniqli tadqiqotchi I.I.Chernisheva "frazeologiyaning ko'lamini ekvivalentlik nazariyasi orqali hal qilib bo'lmaydi<sup>109</sup>", - deb ta'kidlaydi. Umuman olganda, frazeologik iboralarning barcha jihatini teng qamrab olish shu qadar murakkabki, bunday til unsurlarining mohiyatini aniqlash, ochish maqsadida kompleks mezonlar qo'llash talab etiladi<sup>110</sup>.

Ana shunday kompleks mezonlar asosida professor M.E.Umarxo'jayev tomonidan nemis hamda o'zbek tillari frazeologiyasining yangi tadqiqiy yo'nalishi taqdim etildi. Ushbu yo'nalishning yangiligi shundaki, agarda biz yuqorida tahlilga tortilgan yo'nalishlarda asosiy e'tibor tillardagi turg'un so'z birikmalarini tasniflashga qaratilgan bo'lsa, tillardagi turg'un birikmalarning qay tarzda frazeologlashgan tamoyillari va mexanizmini ochish M.E.Umarxo'jayev konsepsiyasining asosini tashkil etadi.

Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun M.E.Umarxo'jayev tomonidan ilk bor asosiy e'tibor frazeologik iboralar tarkibidagi komponentlar ma'nosining

---

<sup>108</sup>Славянская фразеология и паремиология. К 80-летию со дня рождения профессора В.М.Мокиенко. Сборник научных статей. Гомель ГГУ им. Ф. Скорины, 2020. – С.43

<sup>109</sup>Чернышёва И.И. Принципы систематизации фразеологического материала современного немецкого языка//В сборнике "Язык и стиль. –М., 1965. – С.147.

<sup>110</sup> Yusufjonova Sh.M. Nemis va o'zbek tillaridagi frazeologik iboralarning milliy va madaniy xususiyatlari.PhD ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan disser. –Farg'ona, 2022

puchlashish darajasi – gradatsiyasini aniqlashga qaratildi. Ushbu konsepsiyaning originallik darajasini e'tirof etgan holda, mashhur frazeolog A.M.Bushuy bu masalaga bag'ishlangan ilmiy risolasida aynan prof. M.E.Umarxo'jayevning frazeologik va frazeografik konsepsiyasini to'lig'icha izohlab berdi va ma'qulladi<sup>111</sup>.

Sh.M.Yusufjonovanning "Nemis va o'zbek tillaridagi frazeologik iboralarning milliy va madaniy xususiyatlari" mavzusidagi tadqiqotida nemis va o'zbek tillaridagi milliy va madaniy munosabatni ifodalovchi frazeologizmlar ilk bor o'zaro qiyosiy tadqiq etildi; tarjima jarayonlarida hamda til korpuslarini yaratishda frazeologizmlarning o'rni masalasi alohida tadqiq etildi; nemis va o'zbek tillaridagi milliy va madaniy munosabat ifodalovchi frazeologizmlarning pragmatikasiga oid o'xshashlik va farqlilik jihatlari ilmiy asoslangan; nemis va o'zbek tillaridagi milliy va madaniy munosabatni ifodalovchi frazeologizmlarning lingvostilistik xususiyatlarini aniqlash orqali turli tizimli ushbu tillarning lingvomadaniy jihatlari tadqiq etilgan.

Frazeologizmlar o'z mazmun mundarijasida leksik birliklarga nisbatan ko'proq va kengroq ma'no ifodalash xususiyatiga ega. Ammo tilshunoslikda frazeologik birliklarning lingvistik maqomi yetarlicha baholangan emas. Til sistemasida frazeologik birliklarning semantik, stilistik hamda struktural o'ziga xosligi til paradigmikasida o'z mustaqil o'rniga ega bo'lmay keladi. Bu ularning tarkibiy tuzilishdagi murakkabligi va semantik ma'nosidagi atash funksiyasi bilan bog'liq. Frazeologik birliklar atash ma'nosiga ega bo'lsa-da, ularning mazmun mundarijasidagi ma'no hamda uning bo'yoqdorligi leksik birliklardan tubdan farq qiladi. Ular tilning turg'un birliklari sifatida semantik tasnifi hamda har bir til diskursi bilan bog'liq ravishda pragmatik xususiyatlarga ham egadir. Frazeologik birliklar o'z tarkibida mental belgilarni saqlashi bilan ham xarakterlidir. Ular idrok etish va shakl o'rtasida yuzaga kelgan ayrim tushunmovchiliklarning ham yechimiga xizmat qilishi mumkin.

#### ADABIYOTLAR:

- 1.Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент, 2008.
- 2.Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. –Т., 2002.
- 3.Йўлдошев Б. Ўзбек фразеологияси ва фразеографиясининг шаклланиши ҳамда тараққиёти. – Самарқанд, 2007.
- 4.Маматов А. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари. Филол. фанл. докт... дисс. автореф. – Т, 2000.

<sup>111</sup> Бушуй А.М. Фразеологическая и фразеографическая концепция проф. М.И.Умарходжаева. - Самарканд. 2016.

5. Алмаматова Ш. Ўзбек тили фраземаларининг компонент таҳлили. Филол. фанл. номз... дисс. автореф. – Т., 2008.
6. Адашуллоева Г.М. Тожик ва ўзбек тилларида шахс хусусиятини ифодаловчи фразеологизмларнинг қиёсий-типологик таҳлили. Филол. фан. фалсафа док. (PhD) дисс. ...автореф. – Самарқанд: 2018.
7. Носиров А. Француз, ўзбек ва рус тилларидаги провербиал фразеологизмларнинг семантик-стилистик ва миллий-маданий хусусиятлари. Филол. фан. док. (DSc) дисс. ...автореф. – Т., 2016.
8. Халикова М.К. Фразеология как форма отражения национального менталитета в языковой картине (на материале русского и узбекского языков). Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Т., 1999.
9. Расулова М.И. Основы лексической категоризации в лингвистике. – Т.: Фан, 2005.
10. Ширинова Р.Х. Олам миллий манзарасининг бадий таржимада қайта яратилиши. Филол. фан. док. (DSc) дисс. ...автореф. – Т., 2017.
11. Ганиева Ш. Ўзбек фразеологизмларининг структур тадқиқи. – Т.: Фан, 2013.
12. Ахророва Р.У. Француз ва ўзбек тилларида «ёш»га оид семантикалик лексик ва фразеологик бирликларининг лисоний хусусиятлари. Филол. фан. фалсафа док. (PhD) дисс....автореф. – Т., 2020.
13. Содикова М. Краткий узбекско-русский фразеологический словарь. – Т., 1989.
14. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Oliy o'quv yurtlari uchun. – Т.: O'zbekiston, 1992.
15. Жамолхонов Н.А. Фонетика, фонология ва орфоэпия. Маърузалар матни. – Т.: ТДПУ, 1999.
16. Жамолхонов Ҳ.А. Графика ва орфография. Маърузалар матни. – Т.: ТДПУ, 1999.
17. Жамолхонов Ҳ.А. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Ўқув қўлланмаси. 1-қисм. – Т.: ТДПУ, 2004.
18. Жамолхонов Ҳ.А. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Ўқув қўлланмаси. 2-қисм. – Т.: ТДПУ, 2004.
19. Yusufjonova Sh.M. "Nemis va o'zbek tillaridagi frazeologik iboralarning milliy va madaniy xususiyatlari". Filol. fanl. bo'yicha falsafa doktori...diss. – F., 2022.